MUSTAQILLIK YILLARIDA ARXIV ISHI VA ISH YURITISH TIZIMINING UMUMIY AHVOLI

Ernazarov Javohir Qurbonali o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Arxivshunoslik va manbashunoslik” kafedrasi
2-bosqich magistranti
E-mail – javohirernazarov1008@gmail.com
Tel: +998 99 834-56-44

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda arxiv ishi va ish yuritish sohasining umumiy ahvoli, davlat arxivlari faoliyatini yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha fikr yuritiladi. Shuningdek, arxiv ishi va ish yuritish sohasi bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari hamda O‘zbekistonda 2000-yilgacha arxiv ishini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari yuzasidan ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “O‘zbosharxiv”, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, davlat arxivlari, idoraviy arxivlar, arxiv fondi, saqlov birligi.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat mustaqilligini e’lon qildi. Bunday sharoitda O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi arxiv fondi to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish zarurati tug‘ildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxiv fondida taxminan 6,4 million saqlov birligidagi hujjatlar mavjud edi. Ularni saqlash uchun 72 ta davlat arxivi, 9339 ta idoraviy arxivlar tarmog‘i yaratildi.

Mustaqillik yillarida respublika arxiv fondining huquqiy asosi sifatida 1980-yil 4-aprelda SSSR Ministrlar Soveti tomonidan tasdiqlangan “SSSR Davlat arxiv fondi to‘g‘risidagi nizom” amal qildi.

“O‘zbosharxiv” respublika xalqlarining hujjatli xotirasi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxiv fondining huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasida

qabul qilishning muhimligi va zarurligini tushunib, 1991-yilda “O‘zbosharxiv” huzuridagi Arxiv ishlari bo‘yicha Jamoat kengashiga “O‘zbekiston Respublikasi Arxiv fondi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish uchun ishchi komissiya tuzishni taklif qildi.

Ishchi komissiya tarkibiga respublika davlat arxiv muassasalari, partiya qo‘mitalari, idoraviy arxivlar, muzeylar va kutubxonalar mutaxassislari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti olimlari hamda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti) professor-o‘qituvchilari jalb qilingan.

Ishchi komissiya mamlakatimizda arxiv ishini tashkil etishning tarixiy tajribasiga, ushbu masala bo‘yicha mavjud me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, SSSR Arxiv fondi, Ozarbayjon Respublikasi, Moldova Respublikasining “Arxiv fondi to‘g‘risida”gi, Latviya Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida”gi qonun loyihalarini o‘rganishga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Arxiv fondi to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqdi. Ushbu qonun loyihasi 24 ta moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Arxiv fondi va unga egalik qilish huquqlari, davlat va idoraviy arxivlar, arxiv hujjatlaridan foydalanish tartiblari va shu kabi bir qator masalalarni o‘z ichiga olgan edi. 1992-yil iyunda Arxiv ishlari bo‘yicha Jamoat kengashi va O‘zbekiston Arxivchilar jamiyati boshqaruvining qo‘shma yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasi Arxiv fondi to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi muhokamasi bo‘lib o‘tdi va u fikr-mulohazalar asosida qayta ko‘rib chiqilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati ko‘rib chiqishi uchun taqdim etildi. Biroq, ushbu Qonun loyihasi tasdiqlanishi turli sabablarga ko‘ra kechiktirildi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi (“O‘zbosharxiv”) boshlig‘i P.Ne’matov 1994-yil 2-3-noyabrda Kiyev shahrida MDH, Boltiq bo‘yi mamlakatlari davlat arxivi xizmati va arxivchilari jamiyati: rahbarlarining navbatdagi 3-uchrashuvida qatnashib qaytganidan so‘ng, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Uchrashuvdagi axborotlardan

ma’lum bo‘lishicha MDH va Boltiq bo‘yi mamlakatlarining ko‘pchiligida arxiv xizmati bo‘yicha tegishli Qonunlar qabul qilingan/ bizda esa Qonun loyihasi ko‘p karrali iltimosimizga qaramasdan 2 yildan buyon Oliy Kengash Rayosati – o‘r. E.Vohidovda ko‘rilmay yotibdi1”. Oxir-oqibat ushbu Qonun loyihasi faqatgina “loyiha” sifatida qolib ketdi.

O‘zbekistonda arxiv ishi va ish yuritish sohasini tartibga solish vazifalari esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1992-yil 19-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi (“O‘zbosharxiv”) to‘g‘risidagi nizomni va respublika markaziy davlat arxivlari tarmog‘ini tasdiqlash haqida”gi 296-sonli qarori asosida amalga oshirildi. Ushbu qarorga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi (“O‘zbosharxiv”) Nizomi hamda respublika markaziy davlat arxivlari tarmog‘i tasdiqlandi. “O‘zbosharxiv” markaziy apparati xodimlarining cheklangan soni (binolarni qo‘riqlovchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni hisobga olmagan holda) 14 kishidan iborat qilib belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1980-yil 18-sentabrdagi “O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomni va O‘zbekiston SSR markaziy davlat arxivlari tarmog‘ini tasdiqlash haqida”gi 635-son qarori hamda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 31-oktabrdagi “Respublikada arxiv ishini boshqarish sxemasi to‘g‘risida” 398-son qarorining 3-bandi o‘z kuchini yo‘qotdi.2

1996-yilda “O‘zbosharxiv” tomonidan O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini 2000-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu Konsepsiya quyidagi 10 ta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan:

1. Arxiv hujjatlarini jamlash ishlarini takomillashtirish.

---

1 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Бош архив бошқармаси “Ахборотнома”си 12-сони - Т:, 1994. 1-2-бет

2 https://lex.uz/ru/docs/-465000

2. O‘zbekiston Respublikasi DAJ hujjatlarining saqlovini ta’minlash.

2.1. Hujjatlarni davlat arxivlarida doimiy saqlash bo‘yicha

2.2. Hujjatlarni idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash bo‘yicha

3. Arxiv hujjatlarining davlat hisobini takomillashtirish.

4. Arxiv hujjatlari ilmiy-ma’lumotnoma apparati tizimini rivojlantirish.

5. Arxiv hujjatlaridan foydalanish.

5.1. Hujjatlardan foydalanishni yanada kengaytirish bo‘yicha

5.2. Hujjatlarni nashr etish bo‘yicha

6. Arxiv muassasalarida ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni rivojlantirish.

7. Arxiv muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

8. Arxiv ishida avtomatlashtirilgan texnologiyalarni joriy etish.

9. Arxiv ishi boshqaruvini takomillashtirish.

9.1. Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonunchilik va arxiv muassasalari vazifalarining huquqiy ta’minoti

9.2. Arxiv ishining tarmoq va tarmoqlararo boshqaruvini yanada demokratlashtirish

9.3. Davlat arxivlari tarmoqlarini takomillashtirish va rivojlantirish

9.4. Arxiv muassasalarida xo‘jalik yuritishning yangi iqtisodiy usullarini joriy etish va rivojlantirish

9.5. Kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish

10. Arxiv ishi bo‘yicha xalqaro hamkorlik.

1997-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada 77 davlat arxivi mavjud bo‘lib, ularda 5315000 dan ziyod saqlov birligida boshqaruv hujjatlari, 46000 - shaxsiy tarkib hujjatlari, 36000 ga yaqin - ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari, 18000 - kino, 360000 dan ziyod - surat va 13500 saqlov birligida ovozli hujjatlar saqlanar edi. Davlat arxivlari yilda taxminan 100 mingdan ortiq saqlov birligidagi hujjatlar bilan to‘ldirilib borilgan. Ularning ko‘p qismini “alohida qimmatli” toifasiga mansub bo‘lgan hujjatlar tashkil etgan. Davlat arxivlarida 68750 saqlov birligida shunday hujjatlar mavjudligi aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Arxiv Jamg‘armasi (O‘zR DAJ) hujjatlari davlat arxivlaridan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Respublika Fanlar akademiyasida, muzey va kutubxonalarning qo‘lyozma bo‘limlarida, shuningdek, ba‘zi bir sohaviy (Geologiya, Gidrometeorologiya, Geodeziya, Standartlar bo‘yicha) arxiv jamg‘armalarini doimiy o‘zlarida saqlashga ruxsat berilgan.

Respublikadagi 77 ta davlat arxivlaridan 68 tasi moslashtirilgan binolarga joylashtirilgan bo‘lib, shundan 39 tasi egallab turgan maydoni uchun ijara haqi to‘lash orqali faoliyat yuritgan. 60 ta davlat arxivi xonalari kapital ta’mirlashni talab qilgan. Joy yetishmaganligi sababli 488 mingga yaqin saqlov birligidagi tarixiy qimmatga ega bo‘lgan hujjatlar davlat arxiviga qabul qilinmagan. Hujjatlarni reja bo‘yicha jamlashni ta’minlash, idoralardan qabul qilinishi zarur bo‘lgan hujjatlar qarzidan qutulish hamda ularni saqlash talablariga javob bera oladigan bino va xonalarga o‘tkazish uchun respublika bo‘yicha 1.5 mln. dan ortiq saqlov birligidagi sig‘imga ega hujjatxonalarni ishga tushirish kerak bo‘lgan. Bozor munosabatlariga o‘tayotgan iqtisodiy qiyin sharoitda yangi binolar qurish yoki tegishli binolar ajratish masalasida O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi, Qoraqalpog‘iston Markaziy davlat arxivi va Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Surxandaryo, Toshkent viloyatlari davlat arxivlariga alohida e’tibor berilishini taqozo etgan. Kompyuterlar faqat “O‘zbosharxiv”da, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari Arxiv bo‘limlaridagina mavjud bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada arxiv ishi va ish yuritish tizimini rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Biroq, arxiv tizimida Sobiq Ittifoqdan meros bo‘lib qolgan muammolar, moddiy-texnik baza yetishmasligi hamda yetarli mablag‘lar ajratilmaganligi sababli yuqorida qayd etib o‘tilgan muammo va kamchiliklarga duch kelindi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi (“O‘zbosharxiv”) to‘g‘risidagi nizomni va respublika markaziy davlat arxivlari tarmog‘ini tasdiqlash haqida”gi 296-sonli qarori, 1992-yil 19-iyun.

2. «Информационный бюллетень» № 6 Главного архивного управления при Кабинете Министров Республики Узбекистан. – Ташкент, 1992. – С.16.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Бош архив бошқармаси “Ахборотнома”си 12-сони. - Т:, 1994.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Бош архив бошқармаси “Ўзбекистон Республикасида архив ишини ривожлантиришнинг 2000 йилгача мўлжалланган асосий йўналишлари”. – Тошкент, 1997. – Б.33.